

## GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

*Jalilova Dilorom Abdug'afforovna*

*Toshkent shahar Chilonzor tumani 181-umumiy o'rta ta'lif maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu dars ishlanmada gapning uyushiq bo'laklari, ularning yasalishi darslikdagi topshiriqlar, mashqlar va qoidalar asosida turli interfaol usul hamda o'yinlar yordamida ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** uyushiq bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, mashqlar, topshiriqlar.

### **Dars maqsadi:**

**a)ta'limi maqsad:**gapning uyushiq bo'laklari haqida quyi sinflarda o'tilganlarni takrorlash;

- uyushiq bo'laklarning ifodalanishini tushuntirish;

-uyushiq bo'laklarning yoyiq holda kela olishi haqida ma'lumot berish;

**b) tarbiyaviy maqsad:** yosh avlod ongida vatanparvatlik, yurtga sadoqat, do'stlik, hamkorlik tuyg'ularini singdirish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish.

### **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Metod:** jadval, "Zukko tilshunos", "Husnixat", "Til bilimdonlari" usullari.

**Shakl:** jamoa, guruhlarda ishslash

**Jihoz:** darslik, videoproyektor va tarqatma materiallar

**Baholash:** o'quvchilar bilimi ishtirokiga ko'ra baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

## DARSNING BORISHI:



**I.Tashkiliy qism: 1. Kirish suhbati:** davomat, o‘quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish. O‘quvchilarga lola, atirgul, boychechak kabi gul nomlaridan birini tanlash aytildi va tanlangan gulga ko‘ra o‘quvchilar guruhlanadi. (Bunda guruhlarning bilim darajasi turli xil bo‘lib qolishi mumkinligini e’tiborga olish kerak.)

Dars nooan’naviy usulda boshlanib, kirish suhbati va o‘tilgan mavzularni takrorlash qismi o‘zaro bog‘lanib ketadi.

### **II. O‘tilgan mavzu va uyga vazifani so‘rash:**

O‘tilgan mavzu ikkinchi darajali bo‘laklar bo‘lgani sababli “**Zukko tilshunos**” usuli orqali so‘raladi. Bunda matn beriladi. Guruhlardan 1 o‘quvchidan chiqib, matndagi ikkinchi darajali bo‘laklarni topadilar.

### **SHER VA SICHQON**

Bir sichqon uqlab yotgan sherning ustidan pildirab o‘ta boshladni. Sher uyg‘onib ketib, sichqonni tutib oldi va uni yemoqchi bo‘ldi. «Sen, yaxshisi, meni qo‘yib yubor, – deb yolvordi sichqon, – kezi kelganda men ham bu yaxshiling uchun seni falokatdan qutqaraman». Sher bu gapni eshitib, xaxolab kului va sichqonni qo‘yib yubordi. Lekin oradan biroz vaqt o‘tgach sichqon, chindan ham, sherga bergan so‘zining ustidan chiqdi – uni bir o‘limdan asrab qoldi. Gap shundaki, sher ovchilar tuzog‘iga ilinib qolgan va ular sherni arqon bilan daraxtga bog‘lab qo‘yishgan edi....

### **III.Yangi mavzu bayoni: Darslik bilan ishlash.**

## Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot

Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'luvchi, o'zaro teng aloqa, boshqa bo'laklar bilan esa tobe aloqada bo'lgan bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi.

Ular o'zaro teng bog'lovchilar yoki tenglanish ohangi orqali birikadi.

Uyushiq bo'laklar bir-biridan pauza bilan ajralib, sanash ohangi bilan aytildi.

Har bir uyushiq bo'lakning o'z ayrim urg'usi bo'ladi.

**Gapning kesimi va egasi ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin.**

**163-topshiriq.** Ushbu mashq yozma bajariladi. **Bunda “Husnixat” usulidan foydalanish mumkin.** Gaplarni ko'chiring. Ajratilgan gap bo'laklarining qanday so'roqqa javob bo'lishini, o'zaro qanday bog'lanayotganini (teng bog'lanish yoki tobe bog'lanish), qanday tinish belgilari ishlatilganini aniqlang.

1. O'zini ilmga bag'ishlaydigan kishi odamlarga mehribon, haqgo'y; fisq-u fujur, gina, xiyonat, makr va xiyladan xoli bo'lishi kerak.(Farobiy)
2. Faylasuflarning odati,axloqi ham o'z kasbiga loyiq, xuddi tug'madek bo'lishikerak. (Farobiy)
3. So'zlashga berilgan kishi hikmat sharafidan chetlashgan va mahrummdir.(Alisher Navoiy)
4. Olim A'lo bahoga o'qiydiganlarning yomonligi kemaning sinishiga o'xshaydi. Chunki kema sinsa ham o'zi cho'kib, ham o'zgalarni cho'ktiradi. («Otalar o'giti»)
5. Oqillarga shafqat va mehribonchilik bilan muomalada bo'lib, so'ngra tavoze, odob bilan yordam qilinglar. (Ahmad Donish)

**Bilib oling!**

**Gapning barcha bo'lagi uyushadi:**

**1) uyushiq ega:** Bugun Anvaryoki Sobir navbatchilik qiladi;

**2) uyushiq kesim:** U asta joyiga o‘tirib, gapira boshladi.Yo‘l keng va tekis edi;

**3) uyushiq to‘ldiruvchi:** Kitob va daftarlarni keltirdi. Akamga va opamga xabar qildik.

**4) uyushiq aniqlovchi:** Salqin va bahavo bog‘da dam oldik. Olma(ning) va shaftolining hosili mo‘l bo‘ldi;

**5) uyushiq hol:** Topshiriqni tez va puxta bajardik. Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman. Shahar va qishloqda qurilish avjiga chiqqan. Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi. U shaharga o‘qishva ishlash maqsadida kelgan edi.

**164-topshiriq.** Bu mashq ham yozma bajariladi. Gaplardagi uyushiq bo‘laklarni aniqlang. Ularmi shaklyasovchi qo‘srimchalarning qo‘shilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratib ko‘chiring:

1) shakl yasovchi qo‘srimchalar har bir uyushiq bo‘lakka qo‘shilgan so‘zlar;

2) shakl yasovchi qo‘srimchalar oxirgi uyushiq bo‘lakka qo‘shilgan so‘zlar.

1. Donishmandlik haqiqatni so‘zlamoq va tabiatga qulop tutib, unga bo‘ysunmoqlikdan iboratdir. (Buqrot)

2. O‘zini anglash va fikrlash hamma odamlarga xosdir.

(Buqrot)3. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar. (A.Avloniy)

4. Adolatli, fanni sevuvchi aqli hukmdor insonparvarlik munosabatlarini adolat talablariga moslashtirib turishi kerak. (Abu Ali ibn Sino) 5. Ulamolar suhbatida bo‘l; pok, sof niyatli kishilarga talpin.(Amir Temur). 6. Ustoz va muallimlar hurmatini o‘rniga qo‘yanlar bu dunyoda ham, oxiratda ham savob topadi.

#### **IV. Mavzuni mustahkamlash:**

## “Til bilimdoni” usuli. Bu usul orqali yangi mavzuga oid savollar beriladi va mustahkamlanadi

**1. Gapdag'i qanday  
bo'laklar  
uyushiq bo'laklar  
deyiladi?  
Fikringizni  
isbotlovchi  
misollar  
keltiring.**

**2. Uyushiq bo'laklar  
o'zaro qanday  
bog'lanadi?  
Boshqa bo'laklar  
bilan-chi?**

**3. Uyushiq  
bo'laklar  
bir-biridan  
nima bilan  
ajratilib va  
qanday  
aytiladi?**

**4. Qaysi gap  
bo'laklari  
uyushib  
kelishi mumkin?**

**165-topshiriq.** Gaplardagi uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Haqiqiy olimning so'zi, o'yi, fikri va ishi bir xil bo'ladi. («Otalar o'giti»)
2. Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushunchalar uzoq va chuqur tushunish, tekshirish, kashf – ijod, ta'lim olish va boshqalarga ta'lim berish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. (Farobiy)
3. Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur.(A.Navoiy)
4. Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'I kerak. (Farobiy)
5. Olgil mandin nasihat, o'g'lim, ilm-u adab o'rgangin, bo'lub bilimli ulug' xalq ichida boshqag'a ilm-u adab o'rgatgin. (Mahmud Koshg'ariy)
6. Ilmi bo'lishga intilish jumlayi mo'min er va ayollarga oliy sharafdir. (Mirzo Ulug'bek)

**V. Darsni yakunlash va o'quvchilarini baholash.** O'quvchilar dars avvalida e'lon qilingan shartga muvofiq kitob rasmi tushirilgan kartochkalarni ishtiroklariga ko'ra yig'ganlariga qarab baholanadilar. Rasmlı kartochkalardan kutubxona tashkil etadilar va eng ko'p kitob to'plagan o'quvchilar yuqori baholanadilar. Shuningdek,

topshiriqlar asosida to‘plagan ballari asosida guruhlar g‘olibi aniqlanadi. Guruh a’zolari uchun ballari qo‘shib beriladi.

**VI.Uyga vazifa:** 166-topshiriq. Geografiya darsligidan uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan 4 ta gap yozing. Ularning qaysi turkum so‘zлari bilan ifodalanganligini, qanday vositalar bilan bog‘langanini aniqlang.